O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2026, [15]
ISSN 2181-7324(Print)

FILOLOGIYA
http://journals.nuu.uz
Social sciences
ISSN 3093-8996(Onlayn)

UDK: 811.512.1+811.512.133

Xolida K.IMAMOVA,
Dotsent, PhD, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, Toshkent, O‘zbekiston
E-mail: x .imamova@uwed.uz, ORCID ID: 0000-0002-3438-5514.

Professor, f.f.d Q.Sodiqov taqrizi asosida

TURK VA O‘ZBEK TILIDA SALOMLASHISH TURLARI (LINGVOMADANIY VA LINGVOPRAGMATIK JIHATDAN QIYOSIY TAHLIL)

Annotatsiya

Maqolada turk tilidagi salomlashish turlari fatik muloqotning eng yorqin ko‘rinishlaridan biri sifatida o‘rganiladi. Salomlashish iboralari to‘rt guruhga – kundalik va umumiy iboralar, kunning vaqtiga bog’liq salomlashishlar, an’anaviy va diniy iboralar hamda kutib olish iboralariga ajratiladi. Muntazam (regulyar) va okkazional (irregulyar) salomlashishlar, ularning sinonimik va antonimik variantlari, shuningdek salomlashishning noverbal vositalari tahlil qilinadi. Salomlashish so‘zlarining kelib chiqishiga (turkiy, arabiy va forsiy o‘zaklar) hamda ularning ijtimoiy-madaniy shartlanganligiga alohida e’tibor qaratiladi. Turk tilidagi salomlashish tizimi xalqning madaniy qadriyatlari va muloqot me’yorlarini aks ettirishi xulosa qilinadi.
Kalit so‘zlar: turk tili, o‘zbek tili, salomlashish, fatik muloqot, adresat, adresant, regulyar, okkazional.

TYPES OF GREETINGS IN TURKISH AND UZBEK (A COMPARATIVE ANALYSIS FROM LINGUOCULTURAL AND LINGUOPRAGMATIC PERSPECTIVES)

Annotation

The article examines the types of greetings in the Turkish language as one of the most vivid forms of phatic communication. Greetings are classified into four groups: everyday and general expressions, time-bound greetings, traditional and religious expressions, and expressions of welcome. The paper analyses regular and occasional greetings, their synonymic and antonymic variants, as well as the non-verbal means of greeting. Particular attention is paid to the origin of greeting words (Turkic, Arabic and Persian roots) and their socio-cultural conditioning. It is concluded that the greeting system of the Turkish language reflects the cultural values and communicative norms of the people.
Key words: Turkish language, Uzbek language, greeting, phatic communication, addressee, addresser, regular, occasional.

ВИДЫ ПРИВЕТСТВИЙ В ТУРЕЦКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ (СОПОСТАВИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ В ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОМ И ЛИНГВОПРАГМАТИЧЕСКОМ АСПЕКТАХ)

Аннотация

В статье рассматриваются типы приветствий в турецком языке как одно из наиболее ярких проявлений фатического общения. Приветственные выражения подразделяются на четыре группы: повседневные и общеупотребительные выражения, приветствия, связанные со временем суток, традиционные и религиозные выражения, а также приветствия, используемые при встрече и приёме гостей. Анализируются регулярные и окказиональные приветствия, их синонимические и антонимические варианты, а также невербальные средства приветствия. Особое внимание уделяется происхождению приветственных слов (тюркские, арабские и персидские корни) и их социальной и культурной обусловленности. В заключение делается вывод о том, что система приветствий в турецком языке отражает культурные ценности народа и нормы речевого общения.
Ключевые слова: турецкий язык, узбекский язык, приветствие, фатическое общение, адресат, адресант, регулярный, окказиональный.

Kirish. Salomlashish – kishilararo muloqotning eng dastlabki va eng zarur bo‘g’ini bo‘lib, u o‘zaro hurmat, mehr-oqibat va aloqani boshlab beruvchi madaniy ritualdir. Har bir xalq tilida salomlashish eng avval ijtimoiy munosabatlarni o‘rnatish va mustahkamlash undan keyin esa axborot almashinuvi vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Tilshunoslikda muloqotning bunday turi fatik muloqot deb yuritiladi. Fatik muloqotda so‘zlovchining asosiy maqsadi biror yangi axborot yetkazish emas, balki suhbatdosh bilan aloqa o‘rnatish, uni saqlab turish va ijobiy munosabatni ifodalashdir. Bu jarayon bir oilaga mansub tillardan turk va o‘zbek tilida qanday amalga oshirilishini ko‘rib chiqamiz.

Har qanday salomlashish jarayonida ikki asosiy ishtirokchi qatnashadi: adresant – nutqni boshlovchi, salomni yo‘llovchi shaxs va adresat – salom qaratilgan, uni qabul qiluvchi shaxs. Salomlashish ana shu ikki tomon o‘rtasidagi munosabatga – ularning yoshi, ijtimoiy mavqei, yaqinlik (samimiyat) darajasi hamda muloqot kechayotgan vaziyatga (rasmiy yoki norasmiy muhitga) bog’liq holda tanlanadi.

Turk tilida salomlashish iboralari aynan shu omillarga – kunning vaqtiga, samimiyat darajasiga va ijtimoiy muhitga ko‘ra xilma-xillik kasb etadi. O‘zbek tilida ham leksik birliklar orqali kunning vaqti, samimiyat darajasi va ijtimoiy muhitga qarab salomlashish turlari aslida manbalarda ko‘p kuzatiladi. Lekin kunning qay vaqti bo‘lishiga qaramay ‘assalomu alaykum’ leksik birligi kommunikantlar orasida ko‘p qo‘llaniladi. ‘Assalomu aleykum’ birikmasida rasmiylik, samimiylik, neytrallik ma’nolari mavjud. O‘zbek tilida samimiyat darajasi va ijtimoiy muhitga qarab noverbal harakatlarda ham faollik kuzatiladi.

A.Keskin turk madaniyatida salomlashishni keng ma’noda uch bosqichli jarayon sifatida talqin qiladi: birinchidan, muloqotni boshlash uchun salom berish; ikkinchidan, o‘zaro hol-ahvol so‘rash; uchinchidan, xayrlashish [Keskin: 2017, 8]. Mazkur maqolada salomlashishning birinchi bosqichiga – zamonaviy turk tilidagi salomlashish iboralariga e’tibor qaratiladi va ular qo‘llanishiga ko‘ra guruhlarga ajratilib tahlil etiladi.

Tadqiqotchi N.N.Hamroyeva o‘z tadqiqotida fatik muloqotni salomlashish, minnatdorchilik va xayrlashish misolida ijtimoiy-madaniy va kognopragmatik nuqtai nazardan tahlil qilgan [Hamroyeva: 2026, 32].

Tadqiqot metodologiyasi. Salomlashish iboralarini qo‘llanish muntazamligiga ko‘ra ikki turga ajratish mumkin: regulyar (muntazam, an’anaviy) va irregulyar (okkazional, noan’anaviy) salomlashish. «Irregulyar» atamasi lotincha «irregularis» - noto‘g’ri, noodatiy, ma’lum tartib yoki qoidaga moslashmagan degan ma’noni anglatadi [Лёхина: 1952, 488]. “Okkazional” atamasi esa inglizcha “occasional”, nemischa “okkasionell” so‘zlariga borib taqaladi va tasodifiy, umumiy qoidalarga mos kelmaydigan hodisani bildiradi [Ахманова, 1966, 606]. Regulyar salomlashish nutqiy odatga aylangan, barqaror qoliplardan (masalan, Merhaba, Günaydın) iborat bo‘lsa, irregulyar salomlashish muayyan vaziyatga bog’liq, tasodifiy va individual xarakter kasb etadi.

Turk va o‘zbek tilida salomlashish bir tomonlama nutqiy hodisa emas, balki muayyan javobni nazarda tutuvchi ikki tomonlama kommunikativ jarayondir. Shu sababli o‘zbek tilida ‘Salom berish – sunnat (farz), alik olish – farz (qarz)’ maqoli xalq orasida keng qo‘llaniladi.

Turk tilida:

Adresant: - Merhaba!

Adresat: - Merhaba!

O‘zbek tilida:

Adresant: - Assalomu aleykum!

Adresat: - Vaaleykum assalom!

Turk tilidagi merhaba bilan o‘zbek tilidagi assalomu alaykum ayrim kommunikativ vaziyatlarda funksional jihatdan muqobil bo‘lishi mumkin. Biroq ular lug‘aviy va tarixiy-etimologik jihatdan bir xil birliklar emas. O‘zbek tilida ham kelib chiqishi arabcha ‘marhabo‘ leksik birligi qo‘llaniladi. Lekin turk tilidan farqli ravishda o‘zbek tilida ‘Hush kelibsiz!’ ma’nosida ishlatiladi. Salomlashish ma’nosi ta’kidlanmaydi. [ЎТИЛ: 2005, 549]. Yani asosiy ma’no salomlashish emas, balki qarshi olish, kutish olishdan iborat. Turk tilida esa ‘Merhaba!’ iborasi ‘Gün aydın’ yoki ‘Hoş geldiniz’ m a’nosidagi ‘salomlashuv’ til birligi ekanligi qayd etiladi [T.S.: 1988 ,1009]. Har ikki tildagi izohli lug’atlardagi mazmunda farq kuzatiladi. Turk tilida merhaba leksik birligi kommunikantlar orasida aynan takrorlansa, o‘zbek tilida esa ‘assalomu aleykum’ iborasi kommunikantlar orasida aynan takrorlanmasdan balki teskari shaklda qayta ishlatilmoqda.

Demak, salomlashish iboralari o‘zaro sinonimik va antonimik munosabatlarga ham kirishadi. Sinonimik variantlarga bir xil vazifani bajaruvchi Merhaba, Selâm va Esenlikler iboralarini misol qilish mumkin. Antonimik (aniqrog’i, juftlik) munosabat esa salom va unga beriladigan alik o‘rtasida namoyon bo‘ladi: selâmün aleyküm = assalomu aleykum - aleykümselam = vaaleykum assalom hamda hoş geldiniz = xush kelibsiz – hoş bulduk = xush ko‘rdik. Bunday juftliklar salomlashishning ikki tomonlama, o‘zaro javob talab qiluvchi tabiatini ko‘rsatadi.

Yana bir turk tilidagi salomlashuvda ishlatiladigan variant quyidagicha:

Adresant: - Selâmün aleyküm!

Adresat: - Aleykümselam!

Turk tilidagi bu variantga o‘zbek tilida yana quyidagidek javob beriladi:

Adresant: - Assalomu aleykum!

Adresat: - Vaaleykum assalom!

Ushbu misollarda salomlashishning tuzilishi va kommunikativ mazmuni deyarli bir xil. Har ikkala holatda ham birinchi kommunikant tinchlik va omonlik tilagini bildiradi, ikkinchi kommunikant esa mazkur tilakni o‘zaro qaytaradi. Bunda salomga javob berish faqatgina nutqiy harakatni yakunlash emas, balki muloqotga tayyorlik va suhbatdoshni e’tirof etish belgisi sifatida namoyon bo‘ladi.

Birinchi variantda har ikki tilda ham rasmiy, samimiy va neytral salomlashishni bildirsa, ikkinchi shaklning turk tilidagi ma’nosi ko‘proq diniy. Ularning asosiy semantik mazmuni tinchlik va omonlik tilash bilan bog‘liq. Biroq ushbu birliklarning zamonaviy qo‘llanishi faqat diniy muloqot bilan chegaralanmaydi. Masalan, o‘zbek tilidagi assalomu alaykum kundalik ijtimoiy munosabatlarda ham keng foydalaniladigan an’anaviy salomlashish shaklidir. Bu iboraning nutqiy vazifasi diniy mazmundan tashqari umumiy odob-axloq va hurmat ifodalash bilan ham bog‘liq. Shu jihatdan har ikki tildagi ushbu iboralarni faqat diniy birlik sifatida baholash ularning zamonaviy kommunikativ vazifasini to‘liq ochib bermaydi.

Turk va o‘zbek tillaridagi salomlashishlarni qiyoslashda kunning vaqtiga bog‘liq birliklar alohida ahamiyatga ega. Turk tilida günaydın, iyi günler, iyi akşamlar, iyi geceler kabi shakllar mavjud. O‘zbek tilida ham ularga funksional jihatdan yaqin bo‘lgan xayrli tong, xayrli kun, xayrli kech kabi iboralar qo‘llanadi.

Kunning vaqti	Turk tili	O‘zbek tili
Ertalab	Günaydın	Xayrli tong
Kunduz	İyi günler	Xayrli kun
Kechqurun	İyi akşamlar	Xayrli kech
Tungi payt	İyi geceler	Xayrli tun
Kunning istalgan vaqtida	Merhaba, Selam	Assalomu alaykum, Salom

Jadvaldan ko‘rinadiki, har ikkala tilda ham kun vaqtini ifodalovchi salomlashish yoki ezgu tilak bildirish birliklari mavjud. Biroq ushbu birliklarning kommunikativ vazifalari har doim ham to‘la mos kelmaydi. Masalan, turk tilidagi günaydın ertalab uchrashganda salomlashishning tabiiy shakllaridan biri bo‘lsa, o‘zbek tilidagi xayrli tong ham ertalabki salomlashishda qo‘llanishi mumkin. Shu bilan birga, o‘zbek nutqiy muhitida ertalab ham assalomu alaykum shaklidan foydalanish tabiiy hisoblanadi. Turk tilidagi iyi geceler iborasi esa ko‘pincha xayrlashish yoki uxlashdan oldin yaxshi tilak bildirish vazifasini bajaradi. Shu sababli uni har qanday tungi uchrashuvdagi oddiy salomlashish shakli bilan aynan tenglashtirish to‘g‘ri bo‘lmaydi.

Shuningdek, günaydın so‘zi turkiy gün va aydın birliklari asosida shakllangan bo‘lsa, o‘zbek tilidagi xayrli tong iborasi arabcha kelib chiqishga ega xayr negizi bilan turkiy tong so‘zining birikishidan hosil bo‘lgan. Bu holat har ikki tildagi salomlashish birliklarining umumiy kommunikativ vazifasi saqlangan holda, ularning leksik tarkibi turlicha shakllanganligini ko‘rsatadi. Shunday qilib, kun vaqtiga bog‘liq salomlashishlarni qiyoslashda muhim mezon ularning mavjud yoki mavjud emasligi emas, balki qaysi vaziyatda salomlashishning asosiy shakli sifatida, qaysi vaziyatda esa qo‘shimcha ezgu tilak sifatida ishlatilishi hisoblanadi.

Shunga qaramay, har bir iboraning asosiy kommunikativ vazifasi alohida aniqlanishi kerak. Chunki ayrim birliklar salomlashish, boshqalari esa salomlashishdan keyingi tilak yoki nutqiy munosabatni davom ettiruvchi vosita sifatida ishlatiladi.

Demak, turk va o‘zbek tillaridagi salomlashishlarning etnomadaniy umumiyligi tarixiy va diniy manbalar, tinchlik hamda omonlik tilash an’analarida namoyon bo‘ladi. Farqli jihatlar esa mazkur birliklarning zamonaviy nutqiy muhitda tutgan o‘rni va funksional imkoniyatlarida kuzatiladi.

Turk tilidagi salomlashishdan farqli shaklda o‘zbek tilida biror joyga to‘y yoki turli marosimga borilganda yoki tadbirlarda ishtirok etilganda xalq orasida qisqa salomlashish odobdan sanalmaydi. Xalq orasida salomlashish muhim rituallardan biri hisoblanishini yuqorida ta’kidladik. Kommunikantlar bir-biriga ‘omonlik’ tilagandan keyin

‘suhbatdoshining, oila a’zolarining, atrofidagilarining hol-ahvoli’ so‘ralib, yaxshi tilaklar bildiriladi. Agar shu ritual to‘liq bajarilmasa, yoki qisqa salomlashilsa suhbatdoshiga nisbatan ‘hurmatsizlik’ qilingan sanaladi.

Salomlashish faqat verbal shaklda emas, balki noverbal (so‘zsiz) vositalar orqali ham amalga oshiriladi. Tabassum qilish, qo‘l silkitish, bosh egish, ko‘z qisish kabi imo-ishora va mimikalar ham salomlashish shakli hisoblanadi. Rasmiy muhitda, masalan, harbiy kiyimdagi shaxslar o‘rtasida salom muayyan qoidalarga bo‘ysunadi. Shu bilan birga, salomlashish doimo o‘zaro munosabat – muloqot va aloqaning boshlanishi sifatida baholanadi, unda tomonlarning o‘zaro tanishuvi va e’tirof etilishi ta’minlanadi [Keskin: 2017, 8].

Turk va o‘zbek xalqlarining salomlashish madaniyatida qo‘l berib ko‘rishish, bosh bilan ishora qilish, tabassum va yaqin kishilar bilan quchoqlashish kabi harakatlar uchrashi mumkin. Shulardan biri tana a’zomiz sanalgan bosh xarakatidir.

Turk tilida ham o‘zbek tilida ham hech qanday farqlarsiz noverbal salomlashish bu – bosh egish xarakati orqali salomlashish turidir. Bosh inson tanasining muhim qiymatga ega bo‘lgan fikrlash, fahmlash, boshqaruv funksiyasini bajaradigan qismidir. İnsonlar o‘zaro munosabatda turli xil bosh xarakatlari bilan salomlashish va xayrlashishni ifodalaydi.

Yeni fransızca muallımımız Feride Hanım.

Bulunduğum yerden başımla selamladım:

Büyük bestekarımızı tanıdığıma çok memnun oldum efendim, dedim [Güntekin: Ç, 239] ‘ – Yangi fransuz tili o‘qituvchimiz Farida xonim. Turgan joyimdan bosh ishorasi bilan salom berdim: – Taniqli bastakorimiz bilan tanishganimdan behad mamnunman afandim, – dedim.

Bu umumiy tomonlar sanaladi. Farqli tomoniga quyidagi misolni keltirish mumkin.

Turk tilidagi el öpme noverbal harakati ham salomlashishda amalga oshiriladigan muhim rituallardan biri. El öpmek noverbal vositasi salomlashish o‘rnida ham, xayrlashish o‘rnida ham ishlatilib adresatga alohida chuqur munosabat ifodalaydi [Imamova: 2016, 199].

Turk tilida el öpmek harakatining paralingvistik ifodasi ham o‘ziga xosdir. Bir harakat o‘z ichiga bir qancha harakatlarni qamrab oladi; birinchisi, yengil tabassum, ikkinchisi ta’zim bo‘lib, gavda to‘liq egiladi, uchinchisi, qo‘lni o‘pish va to‘rtinchisi, peshonaga qo‘yib tavof qilish orqali ifoda etiladi. Bu to‘rt harakatda salomlashishdagi o‘ziga xos hurmat ma’nosi yengil tabassum, egilish, o‘pish, tavof qilish paralingvistikaning kinematik jihati sanalsa; tabassum, gavda, qo‘l va peshona semiotik tomoni hisoblanadi. Ham salomlashishda, ham xayrlashishda yoshi ulug’ yoki yuqori martabali, katta hurmatga loyiq insonlarga nisbatan qo‘llaniladigan el öpmek harakatida antonimlik kuzatiladi.

O‘zbek tilida o‘ng qo‘lini chap ko‘ksiga qo‘yib salomlashish salomlashishda o‘zi xos xususiyat kasb etadi. Unda kattalarga hurmat, kichiklarga izzat ifodasi mavjud. Ma’lumki, o‘ng qo‘l – bu asosiy ishni bajaruvchi. Uni chap ko‘ksimizga qo‘yish, yurakka yaqin tutish – samimiylik, chuqur ehtiromni anglatadi. Shuning bilan birga o‘zbeklarda masofani saqlagan holda chuqur hurmat bilan salomlashish shakli sanaladi. Turk tilidagi el öpmek harakatida kuzatilgan antonimlik o‘zbek tilida o‘ng qo‘lini chap ko‘ksiga qo‘yib salomlashish tarzida aks etadi. Komunikantlar orasida salomlashishda ham xayrlashishda ham birdek amal qiladi.

Xulosa va takliflar. Turk va o‘zbek tillaridagi salomlashish birliklarining qiyosiy-lingvopragmatik va lingvomadaniy tahlili ularning umumiy tarixiy-madaniy asoslari bilan birga o‘ziga xos kommunikativ xususiyatlarini ham aniqlash imkonini beradi.

Tahlil natijasida salomlashish har ikki tilda ijtimoiy aloqani boshlash, suhbatdoshga hurmat bildirish, samimiy munosabat o‘rnatish hamda muloqot jarayonining davomiyligini ta’minlashga xizmat qilishi ko‘rsatildi.

Salomlashish birliklari orasidagi umumiylik, avvalo, ularning fatik vazifasi, diniy-an’anaviy asoslari, hurmat va ezgu tilak bildirish xususiyatlarida namoyon bo‘ladi. Arabcha kelib chiqishga ega salomlashish birliklari va turkiy madaniy an’analarga asoslangan nutqiy shakllar har ikki xalqning tarixiy hamda madaniy aloqalarini aks ettiradi.

Shu bilan birga, qiyosiy tahlil salomlashishning muayyan shaklini tanlashda kunning vaqti, kommunikantlarning yoshi, ijtimoiy mavqei, o‘zaro yaqinligi hamda rasmiy yoki norasmiy vaziyat muhim ahamiyatga egaligini ko‘rsatdi.

Turk tilidagi merhaba, selam, günaydın, iyi akşamlar kabi birliklar va o‘zbek tilidagi assalomu alaykum, salom, xayrli tong, xayrli kech kabi shakllar umumiy kommunikativ vazifalarga ega bo‘lsa-da, ularning tanlanishi hamda nutqiy vaziyatdagi pragmatik imkoniyatlari bir xil emas.

Shuningdek, har ikki tilda salomlashishning verbal shakllari noverbal vositalar bilan uyg‘unlashadi. Bu esa salomlashishni nafaqat lingvistik, balki etnomadaniy hodisa sifatida baholash imkonini beradi.

Tadqiqotning asosiy natijasi shundan iboratki, turk va o‘zbek tillaridagi salomlashishlarni qiyoslashda lug‘aviy muqobillikdan tashqari funksional-pragmatik muqobillik mezoniga ham tayanish zarur.

ADABIYOTLAR

1. Ахманова, О.С. (1966) Словарь лингвистических терминов. — М.: Советская энциклопедия. — 606 с.
2. Güntekin, R. N. (1992) Çalıkuşu. – İstanbul: İnkılap Kitabevi, 1992. - 408 s.
3. Имамова, Х.К. (2016) Турк тилида хурмат категорияси. Тошкент: Фан нашриёти, Б-207.
4. Keskin, A. (2017) Türk Kültüründe “Selamlaşma” ve “Vedalaşma” Hakkında Genel Bir Değerlendirme // Türk Dünyası, Dil ve Edebiyat Dergisi. — Sayı 43 (Bahar). — Ankara, DOI: 10.24155/tdk.2017.8.
5. Краткий словарь иностранных слов (1952) / Под ред. И. В. Лёхина и др. — М.: Изд-во иностранных и национальных словарей. — 488 с.
6. ЎТИЛ – Ўзбек тилининг изоҳли луғати (2005). М – ҳарфи – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. – 549 б.
7. T.S – Türkçe Sözlük (1982) 2. – Ankara: Türk Tarih Kurumu Basım Evi, -K-Z . - 1679 s.
8. Hamroyeva, N.N. (2026) Fatik muloqotning ijtimoiy-madaniy va kognopragmatik tadqiqi (salomlashish, minnatdorchilik, xayrlashish misolida): Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. — Buxoro: -32 b.